



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
ANDIJON VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
HAY’ATI MAJLISINING BAYONNOMASI**

---

2025-yil 18-iyul

**04/25-son**

Andijon shahri

**Raislik qildi:**

O.Bozarov –boshqarma boshlig‘i.

**Hay’at a’zolari:**

S.Isakov, S.Xasanov, M.Maxsudov.

**Qatnashganlar:**

Boshqarma markaziy apparati sho‘ba boshliqlari.

**Hay’at kotibi:**

N.I.Jaloliddinov

**Kun tartibi:**

**Andijon viloyat adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo‘limlarining  
2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo‘ljallangan ish reja loyihalarini  
tasdiqlash to‘g‘risida**

---

(O.Bozarov, S.Isakov, S.Xasanov, Sh.Tursunov, E.Juliyev, O.Mirzayev,  
B.Yo‘ldashev, S.Isakov, O.Bozarov)

**Majlisning borishi:**

Kun tartibidagi masala hay’at majlisida atroflicha muhokama qilindi.

Andijon viloyati adliya boshqarmasi tomonidan Adliya vazirligi hay’atining 2024-yil 9-iyuldagi 8/25-son qarori bilan tasdiqlangan Adliya vazirligining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejasi hamda boshqarmaga yuklatilgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqib, asoslantirilgan va tashkilotlar faoliyatida o‘rganish o‘tkazishga oid tadbirlarni soha bo‘yicha rejalashtirilishiga e’tibor qaratgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi 3666-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejasi va tuman (shahar) adliya bo‘limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo‘ljallangan na‘munaviy ish rejasi loyihalari ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Hay’at majlisi muhokamasiga taqdim etildi.

Ish reja loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bunga ko'ra Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy sho'ba rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan vazifalarning muddatida ijro eta olishligini, shuningdek ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Yuqoridagi masalalar atroflicha muhokama etilib, Hay'at

### **QAROR QILDI:**

**1.** Kun tartibidagi masala yuzasidan Adliya vazirligi hay'atining 2024-yil 9-iyuldagi 8/25-son qaroriga asosan tasdiqlangan Adliya vazirligining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Quyidagilar:

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan na'munaviy ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho'basi (S.Xasanov):

5 (besh) kunlik muddatda tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan na'munaviy ish rejasi asosida tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejaları ishlab chiqilishini hamda belgilangan tartibda tuman (shahar) adliya bo'lim boshliqlari tomonidan tasdiqlanib, boshqarmaga elektron (PDF) shaklda taqdim etilishini nazorat qilsin.

**4.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tegishliligi bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari hamda Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho'basi zimmasiga yuklatilsin.

**Hay'at raisi  
Boshqarma boshlig'i**



**O. Bozarov**

Andijon viloyat adliya boshqarmasi hay'at  
majlisining 2025-yil 18-iyuldagi  
04/25-son bayoniga  
1-ilova

**Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan  
ISH REJASI**

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
<b>I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA</b>						
1.	<p>1. Quyidagi tuman (shahar) adliya bo'limlari (YXKM, DXM, FHDY) faoliyatini amaliy yordam berish yo'li bilan o'rganish: <b>Andijon tuman;</b> <b>Paxtaobod tuman.</b> Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.</p> <p>2. Quyidagi tuman (shahar) DXM va FHDY bo'limlar faoliyatini amaliy yordam berish yo'li bilan o'rganish: * <b>Buloqboshi tuman;</b> * <b>Qo'rg'ontepa tuman.</b> Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash va boshqarma rahbariyatga axborot kiritish.</p>	avgust-sentabr oktabr-noyabr	<b>S.Xasanov</b>	Adliya bo'limining faoliyati boshqarma tomonidan so'nggi ikki yarim yil mobaynida kompleks tekshirilmagan.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirishini ta'minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish.	1
		iyul-avgust oktabr-dekabr	<b>A.Xasanov</b>	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalarining 222-bandida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi FHDY organlarining faoliyatini har ikki yarim yilda bir marta, hududiy adliya organlari esa har yili tekshirishi lozimligi belgilangan.	Mazkur davlat xizmatlarini belgilangan muddatlarda va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash.	1

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
<b>II. NORMA IJODKORLIGIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH, TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI BAHOLASH VA HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA</b>						
2.	“Men Vatanimning yuziman” nomli targ‘ibot kampaniyasini tashkil etish	iyul-noyabr	<b>U.Xakimov</b> Tuman (shahar) adliya bo‘limlari	So‘nggi davrda chet elda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ko‘plab turli darajadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan omillar sifatida xorijiy mamlakatlarning qonunlari va madaniy qoidalarini yetarlicha bilmasligi, iqtisodiy omillar, oilaviy nazoratning zaifligi, radikallashuv va siyosiy omillarni ko‘rsatishimiz mumkin.	Axloqiy, madaniy va huquqiy bilimlarni oshirish orqali xorijdagi salbiy hodisalarni kamaytirish. Turizm va mehnat migratsiyasi sohalarida milliy brendingni mustahkamlash.	4
3.	* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasida huquqiy axborotni tarqatish ahvoli va yuridik xizmat xodimi faoliyatini o‘rganish. Natijasi bo‘yicha tegishli ta’sir choralari ko‘rish.	avgust	<b>U.Xakimov</b> <b>M.Odiljonov</b>	Mazkur tashkilotda yuridik xizmat hamda huquqiy axborotni tarqatishga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi darajasiga baxo berish.	Tashkilot tomonidan yuridik xizmat hamda huquqiy axborotni tarqatishga oid qonun hujjatlari to‘liq ijro etilishini taminlash.	3
4.	* Andijon viloyati O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasida huquqiy axborotni tarqatish ahvoli va yuridik xizmat xodimi faoliyatini o‘rganish.	sentabr	<b>U.Xakimov</b> <b>M.Odiljonov</b>	Mazkur tashkilotda yuridik xizmat hamda huquqiy axborotni tarqatishga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi darajasiga	Tashkilot tomonidan yuridik xizmat hamda huquqiy axborotni tarqatishga oid qonun hujjatlari to‘liq ijro etilishini taminlash.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.			baxo berish.		
<b>III. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH, YURIDIK TA'LIM VA SUD-EKSPERTIZA SOHASIDA</b>						
5.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "huquqiy ko'mak" aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish	avgust	<b>E.Juliyev</b> U.Xakimov Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmaslik holatlari bo'yicha tegishli murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi kuchaytirilad	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti o'rganiladi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3
6.	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi Andijon viloyati boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – boshqarma) faoliyatida faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan	avgust-sentabr	<b>A.Abidov</b> E.Juliyev S.Otajonov U.Xakimov M.Odiljonov M.Muxammedov	Bugungi kunda o'rmonlarning kamayib borishi va tabiiy tiklanish sur'atining pastligi, davlat o'rmon fondi yerlarida noqonuniy kesish, o'rmon xo'jaligi ko'chatzorlarining yetarli rivojlanmaslik holatlari mavjud. 2030-yilgacha 1,7 mln gektar yerda o'rmonzorlar tashkil etish bo'yicha Prezident qarori mavjud bo'lsa-da, ayrim hududlarda rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmayapti. Masalan,		3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	<p>Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;</p> <p>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari;</p> <p>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;</p> <p>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;</p> <p>yuridik xizmat faoliyati;</p> <p>intellektual mulk sohasi;</p> <p>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.</p> <p>Boshqarmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;</p> <p>huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda boshqarma uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy</p>			<p>2024-yilda Navoiy, Qoraqalpog'iston va Buxoro viloyatlarida rejadagi o'rmon ekish ko'rsatkichlari 40–60% atrofida bajarilgan</p>		

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	ma'lumotnoma kiritish.					
7	<p>O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi Andijon viloyat bo'limi faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>huquqni qo'llash amaliyoti;</li> <li>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;</li> <li>qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;</li> <li>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari;</li> <li>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;</li> <li>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;</li> <li>yuridik xizmat faoliyati;</li> <li>intellektual mulk sohasi;</li> <li>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.</li> </ul> <p>Bo'limning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;</p>	avgust-sentabr	<p><b>A.Abidov</b>  <b>E.Juliyev</b>  <b>S.Otajonov</b>  <b>U.Xakimov</b>  <b>M.Odiljonov</b>  <b>M.Muxammedov</b></p>	<p>Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'si</p>	<p>Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.</p>	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	<p>huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda bo'lim uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.</p>					
8	<p>O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi Andijon viloyat boshqarmasi va tuman (shahar) bo'limlari (keyingi o'rinlarda – boshqarma) faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish,</p> <p>bunda:</p> <p>huquqni qo'llash amaliyoti;</p> <p>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;</p> <p>qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;</p> <p>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari;</p> <p>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;</p>	sentabr-oktabr	<p><b>A.Abidov</b>  <b>E.Juliyev</b>  <b>S.Otajonov</b>  <b>U.Xakimov</b>  <b>M.Odiljonov</b>  <b>M.Muxammedov</b>  Tuman (shahar) adliya bo'limlari</p>	<p>Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan aholining sanitariya-gigiyena talablari, epidemiyaga qarshi choralar, oziq-ovqat xavfsizligi va infeksiyon kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan nazorat faoliyati huquqiy jihatdan yetarli darajada barqaror va samarali emasligi kuzatilmoqda.</p> <p>Profilaktika va gigiyenaga oid targ'ibot materiallari eskicha, yetarli interaktivlik yo'q, sanitariya holati, epidemiologik holat, infeksiya tarqalishi bo'yicha yagona va to'liq ma'lumot bazasi mavjud ema</p>	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi faoliyatini o'rganish natijasida:</p> <p>sanitariya-gigiyena va jamoat salomatligi sohasida amaldagi huquqni qo'llash amaliyotida muammolar bartaraf etiladi;</p> <p>huquqiy hujjatlardagi eskirgan yoki zamonaviy ehtiyojlarga javob bermaydigan normalarni qayta ko'rib chiqiladi;</p> <p>sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish hamda ma'sul organlar vakolatlari va mas'uliyatini aniq belgilash;</p> <p>jamiyat sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash</p>	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	<p>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;</p> <p>yuridik xizmat faoliyati;</p> <p>intellektual mulk sohasi;</p> <p>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.</p> <p>Boshqarma funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;</p> <p>huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda boshqarma uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.</p>				<p>masalalari bo'yicha idoralararo hamkorlikni rivojlantirish;</p>	
9	<p>O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining Andijon viloyatidagi tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda:</p> <p>huquqni qo'llash amaliyoti;</p> <p>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;</p>	oktabr	<p><b>A.Abidov</b> E.Juliyev S.Otajonov U.Xakimov M.Odiljonov M.Muxammedov Tuman (shahar)</p>	<p>Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda</p>	<p>Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.</p>	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	<p>qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;</p> <p>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari;</p> <p>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;</p> <p>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;</p> <p>yuridik xizmat faoliyati;</p> <p>intellektual mulk sohasi;</p> <p>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.</p> <p>tashkilotning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;</p> <p>huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda tashkilot uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.</p>		adliya bo'limlari			

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
10	Ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha hokimlarning qarorlarini o'rganish hamda qonunga zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish choralarini ko'rish.	noyabr	<b>A.Abidov</b> Tuman (shahar) adliya bo'limlar	Davlat Rahbari tomonidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida sport maydonchalari va bolalar o'yingohlari, uylar orasidagi yashil hududlar qurilish uchun berib yuborilayotganidan odamlar noroziligi taniq qilingan. Shuningdek, barcha ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga birlashtirib berish bo'yicha topshiriq berilganligi, biroq, Toshkent shahar hokimining 2025-yil 5-maydagi qarori bilan 9 802 ta ko'p qavatli uylarning faqatgina bino ostidagi yerlari kadastr bilan birlashtirilganligi yuzasidan e'tiroz bildirilgan.	Hokimlar tomonidan ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha qonunchilikka zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish.	3
11	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish va hal etish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida "Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish" huquqiy aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish	noyabr	<b>E.Juliyev</b> Tuman (shahar) adliya bo'limlar	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi Ushbu "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi yanada	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va hal etish, jamiyatda yoshlar rolini oshirish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish va ularning milliy vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirish hisoblanadi.	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
				kuchaytiriladi.		
12	“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va farovonligining huquqiy kafolati” shiori ostida “tengdosh-tengdoshga” tamoyili ostidagi targ‘ibot poyezdi loyihasini tashkil etish.	noyabr	<b>U.Xakimov</b> Tuman (shahar) adliya bo‘limlar	Mamlakatimiz yoshlari aksariyat hollarda o‘zlarining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini to‘laqonli bilmasligi holatlari uchraydi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish hamda aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirish maqsadida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish lozim	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish.	4
<b>IV. XALQARO HUQUQIY HAMKORLIK, HUQUQIY XIZMAT VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA</b>						
13	<p>Notariuslar tomonidan: 2024-yil hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulk va avtomototransport vositasi oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirishda mol-mulklarga nisbatan taqiq va xatlovlar mavjudligini tekshirish holatlarini;</p> <p>2022-2024-yillar hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berish holatlarini o‘rganish.</p> <p>Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga taqdim qilish.</p>	avgust          oktabr	<b>O.Mirzayev</b>	<p>Notariuslar tomonidan mol-mulknı boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq notarial harakatlar rasmiylashtirilganda “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali mol-mulklarga taqiq va xatlovlar tekshirilishi lozim</p> <p>Shuningdek, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berish holatlari 2019-2021-yillarda tahlil qilingan bo‘lib, so‘nggi uch yil mobaynida notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berish holatlarini o‘rganish zarurati mavjud.</p>	Notariuslar tomonidan notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o‘rganish.	1

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
14	<p>* 2024-yil hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlarini umumlashtirish.</p> <p>Natijasi yuzasidan umumlashma ma'lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.</p>	oktabr	<b>O.Mirzayev</b>	Notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlarini o'rganish zarurati mavjud.	Notariuslar tomonidan notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o'rganish.	1
15	<p>* "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida notariuslar tomonidan ko'chmas mulklarni tasarruf etish huquqi bilan berilgan ishonchnomalarni rasmiylashtirishda 2024-yil 1-yanvardan boshlab mulkni taqiqlanmaganligini tekshirish uchun pullik xizmat undirish holatini kameral tekshirish orqali o'rganish.</p> <p>Natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlash va tegishli chora qo'llash. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish.</p>	oktabr-noyabr	<b>O.Mirzayev</b>	Notariuslar tomonidan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali notarial harakatlarni amalga oshirish jarayonlarida belgilangan tartiblarga rioya qilinishi ahvolini tahlil qilish.	Notariuslar tomonidan notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o'rganish.	
16	<p>* Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar <b>X.Maksudov</b> (Andijon shahar), <b>Sh.Ibaydullayev</b> (Qo'rg'ontepa tumani), <b>M.Xusanov</b> (Andijon shahar), <b>N.Xonaliyev</b> (Asaka tumani), <b>A.Mamatov</b> (Shahrixon tumani), <b>Q.Abduraxmonov</b> (Andijon shahar),</p>	iyul-dekabr	<b>O.Mirzayev</b>	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan "Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risida" gi Nizom talablari asosida rejali	Notariuslar tomonidan qonun hujjatlariga amal qilishini ta'minlash va amaliyotni to'g'ri yo'lga qo'yish.	1

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	<p><b>D.Siddikov</b> (Andijon shahar),  <b>B.Berdibekov</b> (Oltinko'l tumani),  <b>M.To'rayeva</b> (Andijon shahar),  <b>A.Usmonov</b> (Marhamat tumani),  <b>B.Sabirova</b> (Andijon shahar) <b>O.Mirzayev</b> (Paxtaobod tumani),  <b>G.Kirgizbayev</b> (Andijon shahar),  <b>I.Uzakbayev</b> (Andijon shahar),  <b>Sh.Qodirova</b> (Andijon shahar),  <b>D.Mirzakarimov</b> (Andijon shahar),  <b>M.Jurayev</b> (Andijon shahar),  <b>F.Madaminov</b> (Xo'jaobod tumani),</p>			tekshirish.		
17	<p>* Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi bilan birgalikda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan advokatlar ishtirokida seminar o'tkazish orqali ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ta'qiblar, asossiz cheklashlar va amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish.</p>	sentabr-oktabr	<b>O.Mirzayev</b>	Advokatlarning kasbiy faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar.	Advokatlarning kasbiy faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish.	1
18	<p>* Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan "<b>Xuquq</b>", "<b>Advokat Mirzaaxmedov Elyorbek</b>" <b>advokatlik byurolari</b> va "<b>Adolat</b>" va "<b>Himoya-Yurmarkaz</b>" <b>advokatlik firmalarining</b> faoliyati davomida ta'sis hujjatlariga va ustavda belgilangan faoliyatiga rioya etilish holatini amaliy yordam berish yo'li bilan o'rganish.</p>	iyul-noyabr	<b>O.Mirzayev</b>	"Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida Nizomda	Tuzilmalar faoliyati davomida ta'sis hujjatlariga va ustavda belgilangan faoliyatiga rioya etilish holatini amaliy yordam berish yo'li bilan o'rganish.	1

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
				advokatlik tuzilmalari tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustavda belgilangan faoliyatiga, qayta ro'yxatdan o'tish va tugatish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi vakolatlari doirasiga kirishi belgilangan.		
19	* Tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali o'tkazilayotgan huquqiy ekspertiza xulosalarini o'rganish. Natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish hamda yuridik xizmat ko'rsatish markazlariga tegishli ko'rsatmalar kiritish.	oktabr-noyabr	<b>M.Odiljonov</b>	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali qabul qilingan hujjatlarni qonun hujjatlariga rioya etilishini o'rganib borish.	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish.	3
20	* O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi Andijon viloyat hududiy bo'limi va O'zbekiston ayollar va qizlar uyushmasi Andijon viloyati hududiy bo'linmasida o'rganish o'tkazish	avgust-sentabr	<b>M.Axmatoxunov</b>	Qonunchilikka ko'ra, rejali o'rganishda nodavlat notijorat tashkilotini ish rejaga qo'shish uchun asos uni oxirgi o'rganish o'tkazilganidan uch yil o'tganligi hisoblanadi. Mazkur tashkilotlar faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmagan.	Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish. Kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olish.	3

<b>T/r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>	<b>Asos</b>	<b>Maqsad (kutilayotgan natija)</b>	<b>Bah o-lash</b>
<b>21</b>	* Asaka tumanidagi <b>Xolid Ibn Valid, Ahmadali Mahdum, Imomi Zufar, Hazrati Usmon, Hazrati Umar, Ikrom hoji</b> diniy tashkilotlar faoliyatini o'rganish.	oktabr-noyabr	<b>M.Axmatov</b>	Mazkur diniy tashkilotlarda adliya boshqarmasi tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish o'tkazilmagan.	Diniy tashkilot faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish. Kelgusida qonun buzilish holatlarini oldini olish.	3
<b>22</b>	Andijon viloyati "Mintaqaviy tadqiqot" markazi faoliyatini o'rganish	sentabr-oktabr	<b>M.Axmatov</b>	Mazkur tashkilot faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmagan.	Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish. Kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olish.	3
<b>V. DAVLAT XIZMATLARI SOHASIDA</b>						
<b>23</b>	* Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish davlat xizmati ko'rsatilish holatini tizim orqali monitoring qilish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralarini qo'llash.	oktabr	<b>S.Otajonov</b>	Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish davlat xizmati ko'rsatilishi faoliyati yetarli darajada nazoratga olinmaganligi bo'yicha shikoyatlar ko'plab kelib tushmoqda.	Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va qonun buzilishlarini oldini olish.	3
<b>VI. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA</b>						
<b>24</b>	Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) bo'yicha majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasida bajarilishi yuzasidan monitoring o'tkazish hamda tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga kiritish.	oktabr	<b>M.Muxammedov</b>	O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro shartnomaga 2019-yilda qo'shilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar majburiyatlar bajarilishi holati o'rganilmagan.	Xalqaro shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyatlar bajarilishini o'rganish hamda mualliflik huquqi obyektlarini internet axborot makonida himoyasini ta'minlash	2
<b>25</b>	* Yuridik va jismoniy shaxslarga o'z milliy brendlari hamda geografik	iyul-avgust	<b>M.Muhammedov</b>	Intellektual mulk nima, Brend nima ekanligi, tovar belgisi, xizmat	Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlariga, o'z	2

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Bah o-lash
	ko'satkichlarga ega bo'lishlarida yaqindan yordam berish va ko'maklashish			ko'rsatish belgisini qayerdan va qanday holatda olishi to'g'risida aholimiz yetarli tushunchaga ega emasligi.	milliy brendlarini, logotiplari bilan birga ishlab chiqarilishiga erishish. Shuningdek, birovning brendidan noqonuniy foydalanish qonunga muvofiq javobgarlikka asos bo'ladi	
26	* Ommaviy axborot vositalari hamda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun tovar (xizmat ko'rsatish) belgisi olishning afzalliklari hamda o'zganing tovar (xizmat ko'rsatish) belgisidan noqonuniy foydalanishning huquqiy oqibatlarini haqida chiqishlar qilib borish.	Sentabr -oktabr	<b>M.Muhammedov</b> Tuman (shahar) adliya bo'limlar	Fuqarolarning intellektual mulk sohasidagi huquqlarini himoya qilish.	Aholining intellektual mulk huquqlar sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish.	4
27	* "Kontrafakt" dori-darmon, oziq-ovqat va alkogol mahsulotlarini aholi orasida tarqalishini oldini olish maqsadida bozorlar va yirik savdo obyektlarida proflaktika tadbirlarini amalga oshirish.	noyabr-dekabr	<b>M.Muhammedov</b> Tuman (shahar) adliya bo'limlar	Fuqarolar tomonidan tushunmasdan, aldangan holda kontrafakt mahsulotini sotib olib o'zi va oilasi tomonidan is'temol qilishi natijasida sog'lig'i va hayotiga salbiy ta'sir qilish holatlari uchramoqda	Fuqarolar kontrafakt mahsulotlardan asrash, ularning sog'lig'i va hayotini asrash.	4

\* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar Adliya vazirligining mavjud resurslari, moliyaviy mablag'lari va moddiy-texnik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

\*\* Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.